

Bolalar Muqaddas Kitobi  
Tasvirlab beradi

Xudo  
Ibrohimning  
sevgisini  
sinaydi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:  
Byron Unger; Lazarus  
Alastair P.

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:  
M. Maillot; Tammy S.


...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children  
[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

©2020 Bible for Children, Inc.

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.  
Lekin u sotilmaydi.



Bir kuni kechasi Xudo  
Ibrohimga qiyin sinov  
berdi. Xudo Ibrohim  
o'gli Ishoqnimi yoki  
Xudoni ko'proq  
sevishini sinab  
ko'rmoqchi edi.



Xudo: "O'g'ling Ishoqni olib,  
qurbonlikka keltir," -dedi. Bu  
juda ham qiyin sinov edi.  
Ishoqni qurbonlikka  
keltirish? O'z  
o'g'lini-ya? Ibrohim  
o'g'lini juda ham  
yaxshi ko'rardi.




Lekin Ibrohim hatto vaziyatni  
tushunmasa ham Xudoga  
ishonish kerakligini bilardi.


Erta tongda Ibrohim o'g'li va  
ikki xizmatkori bilan qurbonlik

keltirish uchun  
toqqa yo'l  
oldi.



Ketishdan oldin  
Ibrohim qurbonlik  
uchun o'tin tayyorladi.  
U Xudoga itoat etishni  
rejalashtirgan edi.





Uch kundan so'ng ular  
toqqa yaqinlashib qolishdi.  
Ibrohim xizmatkoriga:  
"Shu yerda tur,  
biz borib,

Xudoga hamdu  
sano aytib, qaytib  
kelamiz", -dedi.



Ishoq o'tinlarni, Ibrohim  
pichoq va kerakli  
narsalarni oldi.





Ishoq: "Ota, qurbonlik  
qo'zisi qani?" -deb  
so'radi. Ibrohim:  
"Xudoni O'zi uni beradi,"  
-deb javob berdi.



Ular ikkalasi Xudo tayinlab  
qo'ygan joyga kelishdi. U  
yerda Ibrohim qurbonlik joyi  
qurib, o't yoqish uchun o'tin  
tayyorladi. Ibrohim hayotida  
ko'p qurbonlik joylari qurgan,  
ammo bunisi eng qiyini edi.



Ibrohim o'gli Ishoqni bog'lab,  
qurbongohga yotqizdi. U  
haqiqatdan ham Xudoga itoat  
etib, o'g'lini qurbonlikka  
keltiradimi?





Albatta! Ibrohim pichog'ini balandga ko'targanda, pichoq yaraqlab turardi. Uning yuragi esa ezilardiyu, ammo Ibrohim Xudoga itoat etish lozimligini bilardi.





Shu paytda  
Xudoning  
farishtasi  
zohir bo'lib,  
Ibrohimga:  
"To'xta! Sen  
haqiqatdan  
ham Xudodan  
qo'rqishingni  
isbotlading!"  
-dedi.



Ibrohim butalar orasida qo'zini ko'rib, o'g'lini yechdi. So'ng qo'zini qurbonlikka keltirdi. Ishoq ham: "Xuddi otam aytgandek, Xudo qurbonlik qo'zisini berdi", -deb o'yladi.



Ota-bola Xudoni ulug'lab turganda,  
farishta Ibrohimga shunday dedi:  
"Sening itoatkorliging tufayli kelasi  
avlodlaring marhamatli bo'ladi!"  
Ibrohim avlodidan keyinchalik  
Masih kelib  
chiqadi.



Ibrohim va Ishoq uyga qaytib kelishdi. Bir muddat o'tgandan keyin Sora vafot etdi. Ibrohim ayolini va Ishoq onasini yo'qotdi.





Biroz vaqt o'tgach,  
Ibrohim xizmatkorini  
Ishoq uchun turmush  
o'rtog' olib kelishga jo'natdi.



Xizmatkor Ibrohim  
qabiladoshlari orasidan  
qiz izlash uchun ularning  
ona yurtiga yo'l oldi.



Xizmatkor Xudo unga Xudodan biror alomat berishini so'radi. U: "Agar biror qiz tuyamga suv ichirishni taklif qilsa, o'sha Ishoqqa mos qiz bo'ladi," -deb o'yladi.



Shu vaqtda Rivqo paydo bo'lib, ularga suv taklif qildi.  
U Ibrohimni qarindoshi edi. Xudo unga javob  
berganini xizmatkor tushundi.



Rivqo Ishoqqa turmushga chiqish uchun ona yurtini tashlab ketdi. Soraning vafotidan so'ng Rivqo Ishoqqa katta dalda bo'ldi. Ishoq uni juda ham sevardi!



Xudo Ibrohimning sevgisini sinaydi  
Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Ibtido 22-24

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!  
Yuhanno 3:16

